



UYUSHGAN JINOYATCHILIK TUSHUNCHASI VA UNGA QARSHI KURASHNING AYRIM MASALALARI

Raximov Nariman Ibroximovich

IIV TQD JINOYAT QIDIRUV XIZMATI BOSHIG'INING O'RINBOSARI,
POLKOVNIK

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10259800>

ARTICLE INFO

Received: 22th November 2023

Accepted: 29th November 2023

Online: 30th November 2023

KEY WORDS

Uyushgan jinoyatchilik, transmilliy, davlat, jinoyat, uyushgan guruh, uyushma, fikr, tushuncha, hamkorlik.

ABSTRACT

Maqolada uyushgan jinoyatchilik tushunchasi, olimlarning fikrlari va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning ayrim masalalari ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy va siyosiy sohada amalga oshirilayotgan barcha islohotlar o'z mohiyatiga ko'ra inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlashga qaratilgandir. Jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati ham inson manfaatlarini himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev «Biz O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta'minlashni ustuvor vazifa deb belgiladik» [1], – deb ta'kidlaganlar.

Ammo shunga qaramay mamlakatimizda inson manfaatlari uchun olib borilayotgan tub islohotlarga to'sqinlik qiluvchi salbiy omillar ham mavjud bo'lib, bunday omillardan biri uyushgan jinoyatchilikdir.

Uyushgan jinoyatchilik shunisi bilan xavfli, u jinoyatchilikning har qanday turida mavjud, ya'ni har qanday jinoyatchilik yakka holda va uyushgan holda sodir etilishi mumkin. Shu sababli, uyushgan jinoyatchilikka ta'rif berishdagi yondashishlarni yagonalashtirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Uyushgan jinoyatchilik tushunchasiga turli davlatlarda va turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha ta'riflanib kelinmoqda. Shu sababli mazkur muammoni o'rganishda asosiy masalalardan biri "uyushgan jinoyatchilik" tushunchasiga to'g'ri tarif berish hisoblanadi. Uyushgan jinoyatchilik tushunchasiga to'g'ri tarif berish orqali biz ushbu muammoga qarshi kurashishga to'g'ri yondoshimiz mumkin.

Uyushgan jinoyatchilik tushunchasi yoritish uchun dastlab uni o'ziga xos xususiyatlari va alomatlarini yoritish, keyinchalik esa uni sodir etilish usullarini aniqlashtirish lozim bo'ladi. Bu esa bizga uyushgan jinoyatchilik boshqa jinoyatchilikdan nimasi bilan farq qilinishini ko'rsatib beradi.



Birlashgan Millatlar Tashkiloti ushbu muammoning muhimligini ta'kidlab, uyushgan jinoyatchilikni "insoniyat uchun yangi chaqiriq va tahdidlar" dan biri deb hisoblaydi [2].

15.11.2000 yilda BMT "*Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida*" konvensiyasi imzolaniq qabul qilingan, mazkur konvensiya 2003 yil 30 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan va O'zbekistonda ushbu Konvensiya 2004 yil 8 noyabr kuni qonuniy kuchga kirgan.

Ushbu konvensiyasida [3] "uyushgan jinoyatchilik" tushunchasiga ta'rifi mavjud emas. Lekin ushbu Konvensiyaning 2-moddasi uyushgan jinoiy guruhning ta'rifini o'z ichiga oladi va uning belgilarini ochib beradi unda "uyushgan jinoiy guruh" - ma'lum vaqt davomida mavjud bo'lgan va bir yoki bir nechta og'ir jinoyatlarni yoki ushbu Konvensiyaga muvofiq deb topilgan huquqbuzarliklarni sodir etish, bevosita yoki bilvosita, moliyaviy yoki boshqa moddiy manfaat olish maqsadida birgalikda harakat qiladigan uch yoki undan ortiq shaxslardan iborat tuzilgan guruh deb ta'rif berilgan.

Ushbu ta'rif "transmilliy uyushgan jinoyatchilik" tushunchasiga ta'rif berish uchun asos bo'lib, uning belgilarini sanab o'tish orqali Konvensiyaning 3-moddasida keltirilgan va jinoyat transmilliy xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi, agar:

- a) bir nechta davlatlarda sodir etilgan bo'lsa;
- b) u bir davlatda sodir etilgan bo'lsa, lekin uni tayyorlash, rejalashtirish, boshqarish yoki nazorat qilishning muhim qismi boshqa davlatda amalga oshiriladi;
- v) bir davlatda jinoiy guruh (jamoq) tomonidan sodir etilgan bo'lib, o'z jinoiy faoliyatini bir necha mamlakatlarga tarqatgan bo'lsa;
- d) u bir davlatda sodir etilgan bo'lsa, lekin uning asosiy oqibatlarini boshqa davlatda sodir bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligini tahlil qiladigan bo'lsak, biron bir O'zbekiston Respublikasining qonunlarida uyushgan jinoyatchilikka ta'rif berilmagan. Ammo jinoyat kodeksining 29-moddasi 4-qismida: "Ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borishi uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb topiladi" va 5-qismida "Ikki yoki undan ortiq guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun oldindan birlashishi jinoiy uyushma deb topiladi", deb uyushgan guruh va va jinoiy uyushmalarning ta'rifini berilgan [4].

AQSh qonunchiligida uyushgan jinoyatchilikni «qimor biznesi, fohishabozlik, sudxo'rlik, giyohvand moddalar savdosi, mehnat munosabatlardagi reket va boshqalarni o'z ichiga olgan (ammo faqat bu bilangina cheklanib qolmaydigan) noqonuniy tovarlarni yetishtirib beradigan va noqonuniy xizmatlar ko'rsatadigan yuqori darajada shakllangan qattiq tartib-intizomga rioya qiladigan, konspirativ, jamoa (assotsiatsiya) a'zolarining qonunga zid faoliyat, deb ko'rsatilgan [5].

Germaniya politsiya mutaxassislari uyushgan jinoyatchilik ya'ni, "...bir necha (ko'pchilik) shaxslarning jinoiy (jazolanadigan) harakatlar sodir etishga qaratilgan ko'p hollarda zamonaviy infratuzilmalardan foydalanish orqali iloji boricha qisqa muddatlarda katta daromad qozonish maqsadida ko'zlangan mehnat taqsimotiga asoslangan, g'arazli, ongli ravishda, uzoq muddat davom etuvchi birgalikdagi faoliyati" deb ta'rif berganlar [6].



Huquqshunos olim V.D.Malkovning fikriga ko'ra, uyushgan jinoyatchilik uyushgan jinoyatlarning ajralmas majmuidir, chunki bu alohida jinoyatlar guruhli, uyushgan bo'lishi mumkin [7] deb ta'rif bergan.

Haqiqatdan ham uyushgan jinoyatchilikni ma'lum bir jinoyat turi sifatida ko'rish noto'g'ri bo'ladi. Chunki jinoyatchilikning har qanday turi uyushgan guruh tomonidan sodir etilishi mumkin va bunday holda uyushgan jinoyatchilik sifatida qaraladi. Ya'ni giyohvandlik, terrorizm, ekstremizm, tovlamachilik, talonchilik, iqtisodiy jinoyatlar va boshqa bir qator jinoyatlarga uyushgan holda sodir etilsa uyushgan jinoyatchilik sifatida qaraladi.

I.V. Godunov uyushgan jinoyatchilikni "jinoiy yo'llar bilan boyish maqsadida jinoiy va kasbiy asosda ko'plab jinoyatlar sodir etish ko'rinishidagi doimiy xarakterdagi uyushgan jinoiy faoliyatdan iborat salbiy ijtimoiy hodisa" deb hisoblagan [8].

Yuqorida keltirib o'tilgan uyushgan jinoyatchilikka ta'riflardan fikrimcha Uyushgan jinoyatchilik – ma'lum bir soha yoki xalqaro miqyosda doimiy ravishda jinoyatlar sodir etish orqali moddiy manfaat ko'rish, jinoiy guruh a'zolarining aniq vazifalari oldindan reja asosida taqsimlangan, ierarxik tuzilishga ega bo'lgan, jinoiy tashkilotdir.

Umuman olganda jinoyatchilikning eng xavfli turlaridan biri bu uyushgan jinoyatchilik bo'lib, jinoyatchilikning bu turi har qanday davlatni va unda yashayotgan fuqarolarni xavfsizligiga tahdid soladigan asosiy xavflardan biri hisoblanadi. Shu sababdan har qanday davlat tomonidan uyushgan jinoyatchilikni tag tomiri bilan yo'q qilish bo'yicha keskin choralar belgilanmas ekan, mazkur davlatda fuqarolarning hukumatga nisbatan ishonchsizligi ortib borishiga hamda davlatda korrupsiya, davlat va fuqarolar mulkini talon taroj qilinishi kabi salbiy holatlar kuchayib ketishiga va buning oqibatida davlat boshqaruv tizimi tanazzulga uchrashiga olib keladi.

Aksariyat hollarda uyushgan jinoyatchilik g'oyaviy yoki siyosiy maqsadlarni oldiga qo'ymaydi. Ular hukumatni egallashga ham intilmaydilar, balki hukumat vakilini o'zlariga sodiq bo'lishi yoki o'zlarining jinoiy faoliyatlariga to'sqinlik qilmasliklari uchun ularni "sotib olishga" intiladilar.

Bugungi kunda uyushgan jinoiy guruhlarning asosiy maqsadi moddiy foyda topishdan iborat bo'lib, ular o'zlarining jinoiy faoliyatlaridan olingan daromadlari orqali fuqarolar orasida obro' e'tibor qozonishga erishib, o'zlarining turli masalalarni hal qilishda imkoniyatlarini yuqori ekanligini ko'rsatishga urinadilar.

Jinoyat olamida tanilgan uyushgan jinoyatchilik vakillari o'zlarini hashamatli uylarda, qimmatbaho avtomashinalarda yurishlari va shu orqali turli tadbirlarda fuqarolar orasida ko'zga tashlanib yurishlari bilan ajralib turib, orttirgan obro'lari orqali fuqarolar orasidagi turli oldi berdi va boshqa muammolarni ko'cha yechimlari orqali hal qilib evaziga ulush olib kelishlari bugungi kunda ko'p uchramoqda.

Aynan shu xususiyatlar ko'pchilik yoshlarni ularga intilishlariga va ularga o'xshab oson pul topib nom qozonishlari intilishlariga sabab bo'lmoqda.

Yoshlar tomonidan dastlabki etaplarda o'zlarining tengdoshlari yoki yashash hududlaridagi tengdoshlari orasida ko'zga ko'rinishga yoki obro' topishga intilishlari orqali turli huquqbuzarliklarni sodir etishlari orqali jinoyat olamiga kirib kelish holatlari uchramoqda.



Bunda yoshlar tomonidan guruh bo'lib birlashishlari va oqibatda guruhbozlik jinoyatlarini sodir etilishiga olib kelish holatlari uchramoqda.

Uyushgan jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish davlatdagi huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Biron bir huquqni muhofaza qiluvchi idoraning yoki biron bir davlatni yakka holda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishi o'zining samarasini bermaydi. Chunki uyushgan guruhlar o'zlarining jinoiy faoliyatlarini amalga oshirishda xorijiy davlatlardagi sheriklari yoki davlat ichidagi boshqa guruhlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yadilar va bu hollarda yakka holda harakatlanish samarasiz hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishda davlat tashkilotlari, xorijiy davlatlar huquqni muhofaza qiluvchi idoralari va xalqaro tashkilotlar bilan bu boradagi o'zaro hamkorlikni ta'minlash asosiy omillardan biri hisoblanadi.

References:

1. Mirziyoev Sh.M. 20.12.2022 yilda Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi.
2. Доклад Группы высокого уровня по угрозам, вызовам и переменам ООН «Bolee bezopasnyy mir: nasha obshchaya otvetstvennost'», 2004.
3. <https://lex.uz/docs/1304566?otherlang=1>.
4. O'zbekiston Respublikasining kodekslari. I jild. – T.: “Adolat” huquqiy axborot markazi, 2018. – 672 b.
5. Zakon SShA 1968 goda o kontrole nad prestupnostyu i bezopasnostyu na ulitsax (angl. Omnibus Crime Control and Safe Streets Act) dayot drugoe opredelenie. (Organizovannaya prestupnost. Pod red A.I.Dolgovoy, S.V.Dyakova. M: 1993. S 146-147.
6. Osipkin V.N. Organizovannaya prestupnost.-SPb.,1998. S. 13.
7. Malkov V. D. Kriminologiya: Uchebnik / Pod red. M., 2004.
8. Godunov I.V. Transnatsionalnaya organizovannaya prestupnost v Rossii. Atoref.8 dis... d-ra yurid. nauk. Ryazan, 2002. S. 24.